
“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Toshloq tumanidagi sanoat zonalari yo‘l bo‘ylarida “Yashil belbog‘”lar tashkillanmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta‘sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Toshloq tumanida ham “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda davlatimiz rahbarining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlarida belgilab berilgan dolzarb vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, tuman hokimligi hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi ishchi-xodimlari sa‘y-harakati bilan sanoat zonalarida 1500 dan ziyod manzarali daraxt ko‘chatlari ekilib, sanoat korxonalarini atrofida, yo‘l bo‘ylarida “Yashil belbog‘”lar tashkil etildi.

2024-03-09 15:44:14